

## QADIMGI DUNYO TARIXIDA AYOLLARNING JAMIYATDAGI ROLI MESOPOTAMIYA VA QADIMGI ERON MISOLIDA

**Rahmatova Zuhra Xo'jayor qizi**

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti*

*Tarix fakulteti 1- kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada qadimgi sharq sivilizatsiyalari bo'lgan Mesopotamiya va Qadimgi Eron jamiyatida ayollarning roli qay darajada ekanligini ko'rsatib beradi. Ularning jamiyatdagi huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va diniy hayotdagi o'rni, bundan tashqari, ushbu sivilizatsiyalarda ayollar masalasiga qaratilgan e'tibor darajasi tahlil qilinadi. Xususan, ayollarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki va mulkiy munosabatlardagi huquqlari tarixiy manbalar asosida yoritilgan.*

**Аннотация:** *Эта статья демонстрирует роль женщин в обществе Месопотамии и Древнего Ирана, древних восточных цивилизаций. Анализируется их роль в правовой, социально-экономической и религиозной жизни общества, а также уровень внимания, уделяемого женщинам в этих цивилизациях. В частности, участие женщин в государственном управлении и их права в имущественных отношениях освещены на основе исторических источников.*

**Abstract:** *This article shows the role of women in ancient Eastern civilizations of Mesopotamia and Ancient Iran. Their role in legal, socio-economic, and religious life in society, as well as the level of attention paid to the issue of women in these civilizations, are analyzed. In particular, the participation of women in public administration and their rights in property relations are highlighted based on historical sources.*

**Kalit so'zlar:** *Mesopotamiya, qonun, O'rta Ossuriya, matriarxat, nikoh, meros, Elam, Ahamoniylar.*

Bizga ma'lumki, qadimgi davrda ayollarning jamiyatdagi o'rni hozirgi zamondagidan anchagina farq qilgan. Qadimgi dunyoda ayollarning jamiyatdagi o'rni har xil mamlakat va davrlarda turlicha bo'lgan.

Ba'zi joylarda ayollar cheklangan huquqlarga ega bo'lsa, boshqa joylarda ular ancha erkin va faol hayot kechirgan. Biz buni Mesopotamiya va Qadimgi Eron misolida ko'rishimiz mumkin.

Mesopotamiya va qadimgi Eron ayollarini o'rganishga oid adabiyotlarni tahlil qilish ushbu sivilizatsiyalarda ayollarning jamiyatdagi huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va diniy jihatlarini yaxshiroq tushinishga yordam beradi. Bu tahlil adabiyotlarning turli manbalaridan foydalanib, bu ikki sivilizatsiyada ayollarning jamiyatdagi rolini yoritishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Mesopotamiya va qadimgi Eron ayollarini o'rganishda M.W.Chalavas, Simo Parpola, Robert Whiting, N.M. Afshan va Zaynab Bahrani kabi olimlar izlanishlar olib borishgan.

Masalan, Chalavasning "Women in the Ancient Near East" kitobida Yaqin sharqdagi ayollarning holatini atroflicha o'rganib ularning diniy va real hayotdagi mavqeyini ko'rsatib bergan. Bundan tashqari eronlik tarixchi Afshanning "Role of Women in Ancient Persia" nomli maqolasi Eron jamiyatidagi ayollari haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

Mesopotamiyada ayollarning roli jamiyatning davri, ijtimoiy mavqei va oilaviy holatiga qarab turlicha bo'lgan. Mesopotamiyada istiqomat qilgan eng qadimgi odamlar hali urug'chilik tuzumida yashagan bo'lib ishlab chiqarishda muhim rol o'ynagan ayollar katta izzat-hurmatga sazovor bo'lgan. Bundan tashqari ayollar qabila urug' yig'ilishi va diniy marosimlarda ham faol ishtrok etgan.

Mesopotamiyada ayollar masalasiga oid bir qancha qonunlar mavjud. Bularni Xamurappi, Ur-Nammu, Eshnunna, O'rta Ossuriya va Yangi Bobil qonunlari<sup>4</sup> misolida ko'rishimiz mumkin. Xammurapi qonunlari asosan oilaviy munosabatlar, ajrashish tartibi va mulk bo'yicha kelib chiqadigan nizolarni adolatli hal qilish uchun belgilangan. Masalan, Xammurapi qonunlarining 138-moddasida keltirilishicha, qachonki erkak farzand bo'lmagan ayolidan ajrashmoqchi bo'lsa, ajralish to'lovi sifatida kumush bergan va ayoli olib kelgan mahrni qaytargan. Shundan keyin ularning orasidagi nikoh munosabatlari bekor qilingan.

Xamurappi qonunlarining yana bir moddasida shuni ko'rishimiz mumkinki, agar ayolning maqomi mushkenum<sup>5</sup> bo'lsa uni tashlab ketish uchun erkak kumush konining ikkidan bir qismini berishi kerak deb keltiriladi<sup>6</sup>. Bundan ko'rishimiz mumkinki, bu qonun ijtimoiy tengsizlikni hisobga olib, boylar va pastroq tabaqadagi ayollarga turlicha majburiyat qo'yilganini ko'rsatadi. Nikoh marosimi bilan yig'ilgan pul mablag'lari ayolning oilaviy budjetida saqlanib qolgan, lekin eri undan foydalanishi mumkin bo'lgan.

Xamurappi qonunlarida nikoh shartnomasini tuzilishidan avval kuyov bo'lajak qaynonasiga qalin puli berishi kerak bo'lgan. Erkak ayoliga sovg'a -"nudunnum"<sup>7</sup> bergan va u saqlanib qolgan<sup>8</sup>. Bu kabi tartiblar jamiyatda oilaning mavqeini mustahkamlab, ayollarning ma'lum darajada mulkiy daxilsizligini ta'minlashga xizmat qilgan. Qachonki er ayolidan ajrashsa, u uning to'y pulini qaytarishi va o'z mulkidan bir qismini o'g'liga ajratishi kerak bo'lgan. Bordi-yu ayolning farzandi bo'lsa, unga faqat to'y puli qaytarilgan.

Ayol eriga xiyonat qilsa, u surgun qiligan yoki qullikka sotilgan<sup>9</sup>. Bu o'sha davrning axloqiy me'yorlari va oilaviy munosabatlarga berilgan katta e'tibor ifodasidir. Bundan tashqari er ayolidan meros olishi mumkin bo'lmagan. Nega deganda ayol mulki uning avlodlariga tegishli bo'lgan. Biroq ayol nafaqat o'z nikoh to'yini, balki marhum eridan sovg'a sifatida olgan ulushini ham meros qilib olishi mumkin bo'lgan.

<sup>4</sup> Chalavas.M.W. Women in the Ancient Near East. London, New York:A Sourcebook.2014

<sup>5</sup> Mushkenum – qadimgi Bobil jamiyatida erkin fuqarolar va qullar orasidagi cheklangan huquqli o'rta ijtimoiy toifa hisoblangan.

<sup>6</sup> Chalavas.M.W. Women in the Ancient Near East. London, New York:A Sourcebook.2014

<sup>7</sup> Nudunnum – Xamurappi qonunlarining nikoh shartnomasida erkak ayoliga berishi kerak bo'lgan sovg'a.

<sup>8</sup> Urakov.D. Xolliyev.A, Gabrielyan.S, Tursunov.R va boshqalar. Jahon tarixi. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020.

<sup>9</sup> Авдиев.В.И. Кадимги шарк тарихи Тошкент – 1964

Ayol o'z mulkini o'zi boshqarishi, uni berishi hamda boyligini sarflashi, savdo qilishi va ishga kirishi, ruhoniyl bo'lish huquqiga ega bo'lishgan. Bundan tashqari Mesopotamiya jamiyatida siyosiy va diniy elita muassasalari sifatida saroy va ma'bad tizimlari eng nufuzli markazlar bo'lgan.

Ayollar ushbu muassasalarning har ikkala sohasida ham ma'lum darajada yuqori vakolatga ega bo'lish imkoniyatiga ega bo'lgan. Ular ba'zan ma'badlarni boshqaruvchi rahbar sifatida faoliyat yuritgan, kam uchraydigan holatlarda esa siyosiy hokimiyatni to'g'ridan-to'g'ri amalga oshiruvchi hukmron malikalar maqomida xizmat qilgan. Mesopotamiyaning janubida joylashgan Shumerlarning Ur III sulolasi davrida yuz mingdan ortiq hujjatlar mavjud bo'lib, ularning aksariyati qirollik iqtisodiyoti va boshqaruviga oid ma'lumotlarni o'z ichiga olgan. Ushbu manbalar shuni ko'rsatadiki, ayollar jamiyatning turli qatlamlarida rasmiy vakolatga ega bo'lib, qirollikning ma'muriy tuzilmalarining ajralmas qismini tashkil etgan.

Qirolicha va boshqa yuqori martabali qirollik ayollari saroy va diniy muassasalarda muhim vazifalarni bajarishgan. Qirolichaning xonadoni o'z navbatida katta va nufuzli markaz sifatida faoliyat ko'rsatgan. Shuningdek, ko'plab hokimlarning ayollari siyosiy va ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etgan<sup>10</sup>. Ayniqsa, ayollarning to'qimachilik ishlab chiqarishidagi roli hujjatlar orqali keng va aniq qayd etilgan, bu ularning iqtisodiy faoliyatdagi ahamiyatini yaqqol namoyon qilgan.

O'rta Ossuriya qonunlarida milloddan avvalgi II ming yillikdagi Ossuriya patriarxal oila negizlari ancha kuchli bo'lgan. Ossur ayol eridan beruxsat ro'zg'ordagi mulkni boshqara olmagan. Agar ayol biron narsani uydan olib chiqsa, bu o'g'rlik hisoblanib, eri uning quloqlarini kesishga haqli bo'lgan. Ossur ayoli eri o'lgandan keyin ham uning oilasi ixtiyorida qolgan va erining qarindoshlaridan biriga tegishga majbur bo'lgan.

Oilasidan o'n yoshdan katta erkak bo'lmagan taqdirda ayol to'la huquqli beva hisoblanib, kelgusi taqdirini o'zi hal etish huquqini olgan<sup>11</sup>. Yuqoridagi ma'lumotlar Ossur jamiyatida ayollar hayoti qattiq nazorat ostida bo'lganini, lekin ayrim hollarda ularga ma'lum darajada erkinlik va huquqiy maqom berilganini ko'rsatadi.

Yana bir ossur sud qonunlarida ayrim qadimiy huquqiy-ijtimoiy tasavvurlarda erkakning o'z turmush o'rtog'i ustidan mutlaq hokimligi e'tirof etilgan bo'lib, bunda er xotini sochini qirgishi, uni jismoniy jazolashi yoki tan jarohati yetkazishi kabi harakatlarni qilsa ham, u aybdor sifatida ko'rilmagan<sup>12</sup>. Bu esa Ossuriya jamiyatlarda ayollarning ijtimoiy maqomi nihoyatda past bo'lganini, ularning huquqiy himoyasi esa amalda mavjud bo'lmaganini yaqqol namoyish etadi.

Ayollarning erlariga tobeligi qonuning yana bir boshqa moddasida ham ko'rsatiladi, bu moddada aytilishicha, er bedarak yo'qolib ketgan taqdirda, ayoli uni no'malum muddatgacha kutishi shart bo'lgan. Ossur qonunlarining yana bir moddasida "Ota o'z qiziga nibatan istagancha muomala qila oladi" deb aytilgan.

<sup>10</sup> <https://doi.org/10.1017/9781107280328.003> Published online by Cambridge University Press

<sup>11</sup> Курушқол.Ю.С. "Қадимги дунё тарихи" 1-қисм Тошкент - 1974

<sup>12</sup> Авдиев.В.И. "Қадимги шарқ тарихи" Тошкент - 1964

Qiz tug'ilgan kundan boshlab otasining cho'risi hisoblangan, ota o'z qizini cho'rilikka sota olgan, shu bilan birga qonunda muayyan qizlarning bahosi ko'rsatib berilgan<sup>13</sup>. Mazkur qonun qizlarni ota mulki sifatida ko'rgan. Ularning shaxsiy huquqlari cheklangan va ijtimoiy mavqei ota nazoratida bo'lgan. Bu tizim ayollarning erkinligi va huquqlarini tan olmaydigan patriarxal qadiryatlarni o'zida aks ettiradi. Ossuriyada ham levirat odati ya'ni o'lgan kishining beva qolgan ayolining uning aka-ukalaridan biriga majburiy suratda nikohlab berish odati katta ahamiyatga ega bo'lgan. Buni Ossuriyaning sud qonunlari to'plamidagi quyidagi moddadan bilishimiz mumkin. Agar uning o'g'illaridan biri vafot qilib, kelin o'z otasining uyida beva qolsa u holda ota o'lgan o'g'lining xotinini ikkinchi bir o'g'liga nikohlab berishi kerak bo'lgan. Ossur qonunlarida shunday bir maxsus qonun borki, bu modda o'g'li o'lgandan keyin, uning beva qolgan ayolini nikohlab berish uchun boshqa o'g'li bo'lmagan taqdirda, kelinni qaynataning o'zi xotin qilib olishiga yo'l qo'yilgan<sup>14</sup>. Ta'riflangan normativlar asosan oilaviy mulkni saqlab qolishga qaratilgan. Ossuriyaning sud qonunlari beva ayollarning shaxsiy tanlovini cheklab, ularni oilaviy va iqtisodiy manfaatlarga bog'lagan. Ayolning nikohdagi erkinligi emas, ota va oila manfaatlari ustuvor bo'lgan patriarxal tizim hukmron ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Qadimgi Eronda ayollarning roli ijtimoiy, iqtisodiy va diniy jihatdan yuqori bo'lgan. Elamning ijtimoiy muosabatlarida qo'shni Mesopotamiyaga o'xshagan joylari ko'p bo'lgan, lekin matriarxal xususiyatlari Mesopotamiyadan ko'ra uzoq saqlangan. Yer egaligi tamomila ayollar ixtiyorida bo'lgan. Qadimgi Eronda ayollar Zardusht ta'limoti hamda insoniyat omon qolishidagi o'rniga ko'ra ba'zi hollarda xudo sifatida e'tirof etilgan, bu ayollar mavqeyini oshirishga xizmat qilgan. Elam qirollik oilalarida opa-singillar nikohi va levirat nikohi keng tarqalgan edi. Elamdagi shohlar va taxt vorisi tarixda singil o'g'illari unvoniga ega bo'lganlar<sup>15</sup>. Ushbu jarayon qadimgi jamiyatda ayolning huquq va mavqeyini diniy e'tiqodlar va siyosiy amalyotlar bilan uyg'unlashtirish orqali shakllanganligini aks ettiradi.

Miloddan avvalgi sakkizinchi ming yillikda Eron aholisi asta-sekin g'or hayotidan dehqonchilik hayotiga o'tadi. Bu davrda ayollar hayotiy ishlarning barcha jabhalarida hukmron bo'lib xudolik maqomiga ega bo'ldi va ibodat ramziga aylandi. Miloddan avvalgi beshinchi ming yillikda ayollar ijtimoiy hayotda faol ishtirok etgan, qishloq xo'jaligi ishlarida qatnashgan, ularning roli hosilni yig'ish va to'plashdan iborat bo'lgan. Bundan tashqari chorvachilik, kulolchilik, ip yigirish va to'quvchilik bilan shug'ullangan<sup>16</sup>. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki qadimgi Eron jamiyatida ayollarning shaxsiy mavqeyini, mehnatdagi va diniy hayotdagi o'rnini aniqlashda muhim manba hisoblanadi va ularning patriarxal tizimdan oldingi jamiyatdagi yetakchi roli haqida ilmiy tasavvur beradi. Miloddan avvalgi beshinchi ming yillikda ayollar ijtimoiy hayotda faol ishtirok etib, qishloq xo'jaligi ishlarida, xususan hosilni

<sup>13</sup> Авдиев.В.И. "Кадимги шарк тарихи" Тошкент - 1964

<sup>14</sup>Авдиев.В.И. "Кадимги шарк тарихи" Тошкент - 1964

<sup>15</sup>Afshan.N.M. "Role of Women in Ancient Persia" 2014

<sup>16</sup> Chalavas.M.W. "Women in the Ancient Near East". London, New York:A Sourcebook, 2014

yig'ish va to'plashda muhim rol o'ynaganlar. Shuningdek, ular chorvachilik, kulolchilik, ip yigirish va to'qish bilan shug'ullangan. Miloddan avvalgi to'rtinchi ming yillikda esa muhrlar va tasviriy san'at asarlarida ayollarning madaniy va badiiy faoliyati aks etgan. Shu bilan birga, xotin-qizlar arfa, baraban va tanbur kabi musiqa asboblari chalayotgani ko'rsatilgan tasvirlar ham topilgan<sup>17</sup>. Bu tasvirlar ushbu davrda ayollarning nafaqat iqtisodiy, balki madaniy va badiiy sohada ham faol ishtirok etganini ko'rsatadi.

Matriarxat davrida oilaviy birlik ona urug'iga tegishli bo'lgan. Ishlab chiqarish, boshqaruvchi va tashkilotchilar asosan ayollar bo'lgan. Elam ayollari erkaklar bilan teng huquqqa ega bo'lgan. Miloddan avvalgi ikkinchi ming yillikning o'rtalarigacha ayollar qabila ishlarini va kichik shahar davlatini boshqargan, ba'zan uy-ro'zg'or va oila boshlig'i bo'lib ma'naviy yoki axloqiy vakolatga ega bo'lgan. Bu turdagi ayollarga afzallik berish Eron aholisiga xos bo'lib keyinchalik bosqinchi oriyalar an'alariga ham kirgan. Bu davrda ayollar ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotni erkaklar bilan birga davom ettirib, dehqonchilik va chorvachilikning asosiy harakatlantiruvchisi bo'lib xizmat qilganlar. Ayol kishi kengashlarda erkak yonida ishtirok etgan, shuning uchun yunon tarixchisi Ktesiyadan iqtibos keltirgan Dyakof aytishicha: midyaliklar va forslar orasida qonun bo'lib, unga ko'ra ayol yoki uning eri monarxiya lavozimini egallagan. O'sha paytda erkaklar va ayollar o'rtasidagi jismoniy farqlar sezilarli emas edi deydi. Ya'ni Elamda ayollarning roli ahmoniylargacha bo'lgan davrda ham juda kuchli bo'lganini ko'rishimiz mumkin.

Ahamoniylar davrida ayollarning roli deyarli o'zgarmagan, chunki jamiyat ularning avvalgi mavqeini o'zgartirib, ulkan siyosiy va ijtimoiy rivojlanishlarni ortda qoldirdi. Shubhasiz, bu ayollarning vazifalarini ma'lum bir doirada cheklanganligini bildiradi, lekin siyosiy va madaniy sohada ta'siri saqlanib qolgan. Ushbu davrdagi ayollarni o'rganish yunon manbalari va Elam yozuvlari asosida amalga oshirilgan. Persepoldan topilgan epigrafik manbalar shuni ko'rsatadiki, Ahamoniylar saroyidagi ayollar davlat tuzumida faol o'rin egallagan. Manbalarda ularning jasoratli, qat'iyatli va tashkiliy salohiyatga ega bo'lganligi qayd etiladi. Saroy ayollari qirollik bayramlari va marosimlarida muntazam ishtirok etgan, ayrim hollarda esa o'z tashabbuslari bilan tantanalar uyushtirgan. Eron shohi Kir II davrida Eron hududiga qo'shilgan Bobil sivilizatsiyasi ayollarning huquqiy maqomini rivojlantirgan. Bobil qonunlariga ko'ra, ayol yolg'iz yashashi mumkin, meros va nikoh to'lovini olishi huquqiga ega, boyligini boshqarishi, savdo qilishi va ish bilan shug'ullanishi mumkin bo'lgan. Er-xotin nikohdan oldin olingan qarz uchun javobgar emas, ajrashganda esa nikoh to'lovi qaytarilgan. Ayol eri vafotidan keyin boshqa erkak bilan turmush qurishi mumkin bo'ldan. Agar farzandlari yoki ota-onasi bunga to'sqinlik qilsa, sud qarori bilan ruxsat berilgan.

Umuman olganda, qadimgi Eron va unga qo'shilgan sivilizatsiyalarda ayollar iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy jihatdan sezilarli darajada mustaqil bo'lgan. Shuningdek,

<sup>17</sup> Afshan.N.M. "Role of Women in Ancient Persia" 2014

ular mulklar va ularga birlashtirilgan ishchilar faoliyatini nazorat qilgan hamda ma'muriy buyruqlar berish vakolatiga ham ega bo'lgan. Saroy ayollarining ijtimoiy mavqeida ta'lim masalasi alohida o'rin tutgan. Kvin Kursi Rufning "Kokabeh" asarida ta'kidlanishicha, Doro III saroy ayollarni ta'lim berish hamda qirollik avlodi, ayniqsa yosh qizlarni tarbiyalash uchun mas'ul shaxslar sifatida ko'rsatiladi. Manbalarda, shuningdek, saroy ayollari harbiy yurishlarda ham ishtirok etgani qayd etilgan bo'lib, bu ularning podshohning ijtimoiy-siyosiy faoliyatidagi ajralmas tarkibiy qism bo'lganini tasdiqlaydi<sup>18</sup>. Saroy ayollari ijtimoiy, ma'muriy va ta'lim sohalarida faol ishtirok etgan. Ular qirollik avlod tarbiyasi, mulk va ishchilarni nazorat qilish hamda harbiy yurishlarda qatnashish orqali podshohning ijtimoiy-siyosiy faoliyatida muhim rol o'ynagan.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Mesopotamiyada ayollar asosan oilaviy hayot, uy xo'jaligi, iqtisodiy faoliyatning ayrim sohalarida ishtirok etgan bo'lsa-da, qonun ularni huquqlaridan mahrum qilgan. Xammurapi qonunlarida ayollarning mulk huquqi, nikoh masalalari va jamiyatdagi vazifalarini qat'iy tartibga solingan. Qadimgi Eronda esa ayollarning jamiyatdagi mavqei nisbatan yuqori bo'lgan. Ahamoniylar davrida ayollar saroy boshqaruvida, iqtisodiy va diniy marosimlarda faol ishtiroki bilan ajralib turgan. Qadimgi dunyo tarixida ayollarning jamiyatdagi roli Mesopotamiya va Qadimgi Eron misolida o'rganilganda ikkala hududda ham patriarxal tuzum hukumron bo'lganiga qaramay, ayollar ma'lum huquqiy erkinliklarga ega bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Bu esa qadimgi sivilizatsiyalar taraqqiyotida ayollarning hissasi beqiyos ekanligini ko'rsatadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Urakov.D, A.Xolliyev, S.Gabrielyan, R.Tursunov va boshqalar. Jahon tarixi. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. –B.72.
2. Urakov.D.J, Xaynazarov.B.B, Madyarova.S.N. Jahon sivilizatsiyalar tarixi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Nif Msh, 2024. –B.91.
3. Kabirov.A. Qadimgi Sharq tarixi. – Toshkent: Tafakkur, 2016. –B.131.
4. Rajabov.R. Qadimgi dunyo tarixi xerostamatiyasi o'quv qo'llanma – Toshkent: Adib, 2013. –B.68.
5. Boynazrov.F. Qadimgi dunyo tarixi. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2006. –B.268.
6. Авдиев.В.И. Қадимги шарқ – Тошкент: Ўрта мактаб ва олий мактаб, 1964. –Б.484.
7. Курушкол.Ю.С. Қадимги дунё тарихи 1-кисм – Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – Б.106.
8. Кузицина.В.И. История древнего востока – Москва: Высшая школа, 1998. – С.262.
9. Afshan.N.M. Role of Women in Ancient Persia 2014. P 1291-1300

<sup>18</sup>Afshan.N.M. "Role of Women in Ancient Persia" 2014

10. Chalavas.M.W. Women in the Ancient Near East. London, New York: A Sourcebook, 2014. P 144-165.

11. <https://doi.org/10.1017/9781107280328.003> Published online by Cambridge University Press.